


V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2020 yilning yanvar-iyun holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining soni 18915 tani tashkil qildi. Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonasi va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4347 ta, Xiva shahrida 1793 ta, Xiva tumanida 1566 ta, Urganch tumanida 2122 ta, Xonqa tumanida 1448 ta, Yangiariq tumanida 1089 ta, Hazorasp tumanida 922 ta, Gurlan tumanida 1216 ta, Qo'shko'pir tumanida 1263 ta, Bog'ot tumanida 999 ta, Shovot tumanida 906 ta, Tuproqqal'a tumanida 375 ta va Yangibozor tumanida 869 tani tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi 2020 yil yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko'p kichik biznes sub'ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub'ektlarning 27,1 foizi), sanoat tarmog'ida (21,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (29,2 foiz), qurilish tarmog'ida (6,3 foiz) tashkil etilgan.

2020 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida 26,4 birlikda, Xiva shahrida 17,3 birlikda, Yangiariq tumanida 13,2 birlikda, Urganch tumanida 13,4 birlikda, Xiva tumanida 11,7 birlikda Yangibozor tumanida 13,5 birlikda, Tuproqqal'a tumanida 11,8 birlikda, Gurlan tumanida 10,8 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 7-9 birlik oralig'ida Hazorasp, Bog'ot, Ko'shko'pir, Xanka, Shovot tumanlarida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2020 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**

	<i>2020 yil 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan</i>	<i>2020 yil yanvar-iyunda</i>	
		<i>tashkil topdi</i>	<i>tugatildi</i>
Viloyat bo'yicha:	18915	2839	207
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	4347	425	47
Xiva	1793	215	20
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	999	218	3
Gurlan	1216	265	19
Qo'shko'pir	1263	290	4
Urganch	2122	261	27
Hazorasp	922	119	4
Tuproqqal'a	375	75	1
Xonqa	1448	220	21
Xiva	1566	188	27
Shovot	906	156	6
Yangiariq	1089	166	19
Yangibozor	869	241	9

2020 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari soni 2839 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 425 ta, Urganch tumanida 261 ta, Xiva shaxrida 215 ta, Honqa tumanida 220 ta, Qo'shko'pir tumanida 290 ta, Hazorasp tumanida 119 ta, Xiva tumanida 188 ta, Shovot tumanida 156 ta, Yangiariq tumanida 166 ta, Gurlan tumanida 265 ta, Bog'ot tumanida 218 ta, Yangibozor tumanida 241 ta va Tuproqqal'a tumanida 75 tani tashkil qildi.

2020 yil yanvar-iyunda Yapi hududiy mahsulotning 69,1 foizi (2019 yil yanvar-iyunda 70,6 foiz) kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2020 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1278,7 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 24,4 foizi) yoki 2019 yilning yanvar-iyungacha nisbatan o'sish sur'ati 83,9 foizni tashkil qildi;

- 5884,7 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,6 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari Yapi mahsulotining 99,6 foizi) tashkil qildi;

- 2067,9 mlrd. so'mlik investitsiya (umumiy investitsiya hajmining 73,8 foizi) o'zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-iyungacha nisbatan 109,9 foizni tashkil qildi;

- 1314,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 91,8 foizi) bajarildi va 2019 yilning yanvar-iyungacha nisbatan 94,1 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 97,7 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 76,3 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 94,3 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 97,6 foizi) tashkil qildi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,0 foizi yoki 3127,6 mlrd. so'mi (o'sish 94,9 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 62,9 foizi yoki 1861,1 mlrd. so'mi (o'sish 97,2 foiz) shakllantirildi;

- 59,8 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 69,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 80,6 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 66,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi
(2020 yilning yanvar-iyun)**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5884,7	99,6
Sanoat	1278,7	24,4
Qurilish	1314,1	91,8
Chakana savdo	3127,6	82,0
Yuk tashish, mln tn.	15,7	94,1
Yo'lovchi tashish, mln.kishi	173,7	96,3
Eksport, mln. AQSH doll.	59,8	69,1
Import, mln. AQSH doll.	80,6	66,2

